

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010100 – Turizm va mehmondo'stlik
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010100 – Turizm va mehmondo'stlik

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260012
Xulosa raqami	804-son
Xulosa sanasi	2026-yil 30-iyun
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Shahrisabz davlat pedagogika instituti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'chasi, 10-uy; guvohnoma № 743449, 15.07.2019-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Turizm va mehmondo'stlik
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Mirsolixov Mira'zam Xasan o'g'li – Millat Umidi universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 743449 / 15.07.2019
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010100 – Turizm va mehmondo'stlik
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010100 – Tourism and Hospitality
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010100 – Туризм и гостеприимство
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Turizm iqtisodchi-texnologi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	350 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'chasi, 10-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). Ekspertiza natijalariga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda institutning ichki me'yoriy hujjatlari asosida shakllantirilgan. Institutning 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va strategik rejasi mavjud bo'lib, ular milliy va institutsional ustuvorliklar bilan uyg'unlashgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Ekspertiza natijalariga ko'ra, universitetda ta'lim dasturlari manfaatdor tomonlar ishtirokida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talabalariga muvofiq ishlab chiqilgan. "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishining asosiy me'yoriy hujjatlari malaka talablari, o'quv rejasi va fan dasturlari Institut Kengashining qarori bilan rasmiy tasdiqlangan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Ekspertiza natijalariga ko'ra, institutda o'quv jarayoni ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda amaldagi Davlat ta'lim standartlari (DTS) va Milliy malakalar ramkasi (MMR) talabalariga muvofiq tashkil etilgan. Institutda kredit-modul tizimi joriy etilgan bo'lib, 100 ballik reyting tizimi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari hamda ECTS konvertatsiyasi aniq belgilangan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Ekspertiza natijalariga ko'ra, institutda talabalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha zarur tashkiliy- huquqiy asoslar yaratilgan hamda qabul jarayonidan boshlab talabalarning akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan barcha asosiy jarayonlar ichki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). Ekspertiza natijalariga ko'ra, institutda ta'lim dasturlarini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan inson resurslarini shakllantirish bo'yicha tizimli yondashuv yo'lga qo'yilgan. Geografiya kafedrasida 24

nafar professor-o'qituvchi (2 DSc, 9 PhD) faoliyat yuritadi. Asosiy shtatdagi xodimlar ulushi 85,7% ni tashkil etib, 70% lik me'yordan yuqori. Raqobat asosida ishga qabul qilish tartibi mavjud va aniq belgilangan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofig). Ekspertiza natijalariga ko'ra, institutda ta'lim dasturlarini sifatli amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza shakllantirilgan hamda u amaldagi me'yoriy talablar va ta'lim dasturlari ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan. Institutning umumiy moddiy-texnik bazasi nisbatan yaxshi ta'minlangan. O'quv binolari (1500 va 720 o'rinli) umumiy maydon ko'rsatkichi bo'yicha me'yordan 105,6% ortiq.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar ulushini belgilangan me'yorlarga yetkazish bo'yicha ishlarni davom ettirish zarur.
- ✓ Turizm sohasi bo'yicha amaliyot va inklyuziv ta'lim sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ulushini belgilangan me'yorlarga yetkazish bo'yicha kadrlar rejasini amalga oshirish tavsiya etiladi.
- ✓ Turizm sohasi korxonalari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish va tegishli o'quv kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.
- ✓ Inklyuziv ta'lim va zamonaviy o'quv infratuzilmasini yanada yaxshilash tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Shahrisabz davlat pedagogika instituti" davlat muassasasining 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha taqdim

etilgan hujjatlar hamda asoslovchi materiallar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.


O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga to'liq javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish va ularga tegishli mezonlar muvofiq deb baholandi.

Aniqlangan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 5-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

